

TURKISTONDA XALQ UNIVERSITETINING OCHILISHI TARIXI

*Andijon Davlat chet tillari instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Najimidinova Shoxsanam Shorobidin qizi*

Annotatsiya: Maqolada 1918 yilda Turkistonda tashkillanib, faoliyat ko‘rsatgan oliy ta’lim muassasasi bo‘lmish – Turkiston Xalq universitetining tashkil etilishi tarixi, undagi ta’lim sifati, mavjud bo‘lgan fakultetlar xaqida to‘xtalingan.

Kalit so‘zlar: dorilfunun, farangiylar, fakultetlar, akademiya, prorektor.

Oliy ta’lim dargohi bo‘lmish universitetlar o‘z mohiyatiga ko‘ra har bir millatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Yurtimiz o‘tmishiga nazar soladigan bo‘lsak, olamga dong taratgan qanchadan qancha madrasalarimiz, dorilfununlarimiz, zabardast olimlaru fozillarimiz jahon fani va madaniyati rivojiga salmoqli xissa qo‘shganligining guvoxi bo‘lamiz.

Yevropada birinchi ilmiy akademiya 1162 yil Angliyada, 1724 yilda Rossiyada vujudga kelganiga e’tibor bersak, Islom olamida bunday akademiyalar VIII-IX asrlardayoq vujudga kelgan edi. Bu zamindan yetishib chiqqan allomalarimiz IX-XII asr musulmon uyg‘onishi davridayoq jahon fani va ma’daniyati taraqqiyotiga o‘zlarining munosib xissalarini qo‘shgan. Bu keyingi davrlarda ham davom etdi. Ilm fanga rag‘bat va muxabbat butun tariximiz mobaynida so‘nmagani kabi chor rusiyasi, qizil imperiya davrida xam so‘nmagan. Masalan, XVIII asrda Samarqand va Buxoroda 70ta, XIX asrda birgina Toshkentda 18 ta madrasa bo‘lgan. 1894 yili Turkistonda 6 ming 445 ta maktab va madrasa faoliyat ko‘rsatgan, 1913 yilga kelib ular soni 7 ming 665 taga yetgan.

Endi zamonaviy tipdagi oliy ta’lim muassasasi bo‘lmish universitet ochish g‘oyasi xaqida to‘xtaladigan bo‘lsak, qiziqki, Toshkentda universitet ta’sis etish masalasiga dastlab, 1898 yilda Dukchi Eshon boshchiligidagi o‘zbek xalqining mustamlakachilik va milliy zulmga karshi ozodlik xarakati bo‘lgan Andijon quzg‘aloni sabab bo‘lgan edi. Qo‘zg‘alonnинг kelib chiqishiga rus harbiy ma’muriyati va amaldorlarning mahalliy xalq tilini bilmasliklari, o‘zbek xalqining urf-odatlarini to‘g‘risida tushunchalari yo‘qligi turki bo‘lgan, degan xulosa kelgan rus xukumati tez orada Turkistonda universitet ochish harakatini boshlab yuborgandi.

Bundan tashqari, taniqli sharqshunos va harbiy amaldorlardan bo‘lgan S.F. Oldenburg 1902 yili “Saygondagi Uzoq Sharq fransuz maktabi” nomli maqolasida Farangilar Uzoq Sharqni bosib olganlaridan so‘ng, bu shaharda ilmiy maktab tashkil etib, fransuz sharqshunosligida katta ishlar olib borayotganliklarini ta’kidlaydi va “Rusiya xam Sharqda ilmiy maktab (oliy maktab) tashkil etib, rus sharqshunosligiga

mustaxkam poydevor yaratса, aynи maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Toshkent esa shu ilmiy maktab faoliyat ko‘rsatishi uchun juda qulay markaz bulishi mumkin. Bu ruslarga O‘rta Osiyo yerlarinigina emas, balki Eron, Afg‘oniston, Kashg‘ar, Tibet va xatto Xitoy va Mo‘g‘ilistonni o‘rganish imkoniyatini beradi” – degandi. Huddi shu fikrlar oliy o‘quv yurti tashkil etilishining yangi bosqichga ko‘taradi.

Shunday qilib Toshkentda Ovrupocha oliy o‘quv yurti tashkil erish xaqida rus sharqshunos olimlari, amaldor va ilmiy-madaniy missionerlar o‘rtasida boshlangan katta muzokara uzoq davom etdi. Ochiladigan oliy o‘quv yurtining qay tarzda bo‘lishi, vazifasi nimalardan iboratligi to‘g‘risida turli fikr va mulohazalar aytildi.

Xalq universiteti tashkil etilishi haqidagi xabar tezda butun Turkiston bo‘ylab yoyildi. Tashkiliy kommissiyaning ishi matbuotda keng yoritilib borildi. Bu esa universitetda ishslash va o‘kishni xohlovchilarga umid va kuch bag‘ishladi. O‘qishga kirish uchun berilgan arizalardan o‘z bilimi va xunarini xalqqa bag‘ishlash istagida bo‘lganlarning tarkibi va saviyasi turlicha ekanligi yaqqol ma’lum bo‘ldi. Bu xalq universitetining tuzilishini aniqlash imkonini berdi. Natijada uni uch bosqichda – oliy, o‘rta va quyi bosqichli bo‘lishi belgilandi.

1918 yil 5 aprelda tashkiliy komissiya a’zolari hamda universitetda ishslash uchun tanlab olingan o‘qituvchilar va universitet ochilishidan manfaatdor bo‘lgan barcha kishilarning birgalikdagi yig‘ilishi bo‘lib, unda Turkiston Xalq universiteti rektorligiga dotsent A. V. Popov, beshta fakultet dekanlari demokratik tarzda saylandilar. Universitet o‘qituvchilarining 18 aprelda bo‘lib o‘tgan umumiy majlisida G. N. Cherdansev rektor yordamchisi – prorektor lavozimiga loyiq deb topiladi. Shaxar ko‘chalari, mahalliy matbuotda Toshkentda Turkiston Xalq universiteti katta tantana bilan ochilishi haqida e’lon va xabarlar paydo bo‘ldi. Nihoyat, 21 aprel kunduz soat 3 da yangi shahardagi ozodlik uyi (hozirgi O‘zbekiston bolalari kutubxonasi binosi) da Turkiston Xalq unitesiteting ochilish marosimi boshlanib, bir necha soat davom etdi.

Shu tariqa Turkiston Xalq universitetining adabiyot-falsafa, ijtimoiy-iqtisodiyot, qishloq-xo‘jaligi fakultetlarida 23-25 apreldan, tabiiy fanlar – matematika va texnika fakultetlarida 9 maydan dars mashg‘ulotlari boshlanib ketdi. Bu fakultetlar xozirgi Mavorounnaxr (Proletar) hamda “Pravda Vostoka” ko‘chalari kesishgan joydagi sobiq “Buff” qahvaxonasi binosida, hozirgi Sayilgoh (Sobiq K.Marks) ko‘chasidagi binolarda, hozirgi Yo‘ldosh Oxunboboyev (sobiq Kuybishev) ko‘chasidagi ayollar gimnaziysi (hozirgi aviatsiya texnikumi) binolarida va boshqa binolarda qo‘nim topgan edi.

Eng qizigi o‘qishga qabul qilish shartli edi. Bu jahon tajribasida juda kamdan-kam uchraydigan xolat bo‘lib, o‘qish bepul va faqat birgina xoxish-istakning o‘zi kifoya edi. Xech qanday xujjat talab etilmasdi. Bilim darajasi turlicha bo‘lgan talabalar orasida ishchilar, tashkilot va idora, devon xodimlari, o‘rta maktabni endi bitirganlar, markazdagи oliy o‘quv yurtlarining talabalari bor edi. Dars mashg‘ulotlari ishdan keyin

soat 6 da boshlansa-da, xonalarni to‘ldirgan talabalar o‘zлari uchun qiziqarli ma’ruzalarni maroq bilan tinglar edilar.

1919 yil Xalq universiteti hayotida burilish yili bo‘ldi. Yozgi ta’til paytida o‘qituvchilar ulgirmayotgan talabalar uchun qo‘srimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish rejasini tuzdi. Ular birinchi marta boshqa shaharlarga borib, universitet faoliyati to‘hrisida so‘zlab berish, yoshlarni o‘qishga jalg qilish kabi targ‘ibot va tashviqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar.

1919-1920 o‘quv yilidan boshlab talabalar soni boshqa shahardan kelgan yoshlarni evaziga ko‘paya bordi. Yotoqxonalar yetishmasligidan ular darsxona va koridorlarda tunab, o‘qir edilar. Shu yili universitetga qo‘srimcha darsxona, internet-yotoqxona ajratildi. Ayrim talabalar avval 840 so‘mdan, keyinchalik esa 2200 so‘mgacha stipendiya oladigan bo‘ldilar. 1919 yili tibbiyot fakulteti ochiladi, ishchilar va xarbiylar fakulteti ochish taraddudi boo‘landi. Nihoyat, 1919 yil dekabr oyiga borib, Turkiston Xalq universiteti RSFSR da qabul qilingan umumiy qoida asosida Turkiston Davlat universitetiga aylantirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston Xalq universiteti jamoasining sal kam ikki yillik ilmiy-ijodiy va pedagogik faoliyati muvafaqiyat bilan yakunlandi. Toshkendagi ilk universitet xisoblangan bu oliy o‘quv yurti faqatgina O‘zbekistondagina emas, balki Markaziy Osiyoda ham ilk zamonaviy oliy o‘quv yurti bo‘lib, uning tajriba va andozasi asosida turli yirik shaharlarda ham shunday oliy o‘quv yurtlari ochildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- Черданцев Г.К. “Из истории первых лет Туркестанского университета 1918-1922”. Наука и просвещение”. 1922.
- Очерки истории Ташкентского государственного университета им. В.И.Ленина. Т.: «Фан». 1980.
- ТошДУ илм ва маърифат маскани. Тошкент. “Университет” 1995.
- Журнал Народного Комисариата Просвещения Туркеспублики «НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ» Ташкент. 1922.
- Журнал министерства народного просвещения. 1902, март.
- Джураев. Д.У. Туркистон анъанавий мактаблари фаолияти тарихидан (XIX аср иккинчи ярми). // “Замонавий таълим” / “Современное образование” илмий-амалий журнали, 2017 йил. 7-сон.
- Tojiboyeva G. R. Development of the skill of calligraphic writing as a professional competence in a future primary school teacher //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 830-835.
- Rahmanzhanovna T. G. SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF CONFLICT SITUATIONS IN THE TEACHING STAFF //World Bulletin of Social Sciences. – 2024. – Т. 31. – С. 30-32.
- Кори Ниязов Т.Н. “Размышление пройденной пути” М.: Политиздат. 1970.